

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





2. Abdullaev S.X. Texnologik ta'lim o'qituvchilarining ergonomik kompetentligi // Monografiya. – GlobeEdit is a trademark of Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of t'e OmniScriptum S.R.L Publishing group str. A. Russo 15, of. 61, CHisinau-2068, Republik of Moldova Europe Printed at: see last page, 2022, ISBN:978-620-2-48669-9.

3. Abdullaev S.X. O'qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2021. 9-son. B.28- 36.

4. Abdullaev S.X. Pedagogik ergonomika va o'qituvchi ergonomik madaniyatining tashkiliy asoslari // Zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2020. 8-son. B.61- 68.

5. Muxina M.V. Razvitie texnicheskogo myshleniya u budushchego uchitelya texnologii i predprinimatel'stva sredstvami sistemy poznavatel'nykh zadaniy. Kandidatskaya dissertatsiya. Nijniy Novgorod – 2003. 49- 57

### **OBRAZLI TAHLIL – KREATIV VA STRATEGIK FIKRLASH OMILI SIFATIDA**

Kambarova Saodat Irkinovna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasida dotsenti,

ped. fan. bo'y. fals. dok. (PhD)

E-mail: [saodat7373@mail.ru](mailto:saodat7373@mail.ru)

*Annotatsiya.* Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida badiiy asarlarni obrazli tahlildan foydalanib o'qitish masalasi Alisher Navoiy ijodini o'rganish misolida yoritilgan. Xususan, o'quvchilarning "Xamsa" dostonida badiiy gavdalantirilgan ilmiy-fantastik timsollarni obrazli tahlil imkoniyatlari doirasida kashf qilishlari tasvirdagi voqelik mohiyatini anglashlariga zamin yaratishi o'z aksini topgan.

*Kalit so'zlar.* Obrazli tahlil, hissiy-obrazli tasavvur, grafik tasvirlash, ilmiy-hayotiy timsollar, xayoliy obraz.

### **ОБРАЗНЫЙ АНАЛИЗ КАК ФАКТОР ТВОРЧЕСКОГО И СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

Камбарова Саодат Иркиновна

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, доцент

кафедры родного языка и литературного образования,

доктор философии педагогических наук (PhD).

E-mail: [saodat7373@mail.ru](mailto:saodat7373@mail.ru)

*Аннотация.* В статье на примере изучения творчества Алишера Навои освещается вопрос обучения художественным произведениям методом образного анализа в общеобразовательных школах. В частности, отражено, что обнаружение учащимися художественно воплощенных научно-фантастических символов в эпосе «Хамса» в рамках возможностей образного анализа создает основу для понимания сущности действительности в образе.

*Ключевые слова.* Образный анализ, эмоционально-образное воображение, графическое изображение, научно-жизненные символы, воображаемый образ



## IMAGINARY ANALYSIS AS A FACTOR OF CREATIVE AND STRATEGIC THINKING

Kambarova Saodat Irkinovna

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

PhD, Associate professor

E-mail: [saodat7373@mail.ru](mailto:saodat7373@mail.ru)

**Annotation.** *In the article, the issue of teaching works of art using figurative analysis in general secondary schools is covered by the example of studying Alisher Navoi's work. In particular, it is reflected that the students' discovery of artistically embodied science-fiction symbols in the epic "Xamsa" within the possibilities of figurative analysis creates a basis for understanding the essence of reality in the image.*

**Key words.** *Image analysis, emotional-image imagination, graphic representation, scientific-life symbols, imaginary image.*

### Kirish

Ilm olish ezgu amallar, jamiki fazilatlar manbayi sifatida har bir kishining insoniy burchiga aylanadi. Shu tufayli o'zlikni anglash, komillik odobini egallash xalq baxt-saodati, farovon turmush kechirishi, vatan ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lishdek ezgu maqsadga qaratiladi. Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlarida ilm-ma'rifatli bo'lish bilan birga sabr, tavoze, adab, saxiylik, himmat, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehr-muruvvat, vafo, karam kabi chin insoniy fazilatlar targ'iboti ham alohida o'rin tutadi. "Eng katta boylik, – degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak" [4]. Bu borada Alisher Navoiy asarlari yosh avlodning intellektual salohiyati, ma'naviy kamoloti hamda badiiy-estetik tafakkuri rivojida bebaho xazinadir.

Ma'lumki, adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish ularning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Badiiy asar tahlili muallifning o'sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo'lini qayta bosib o'tish, ijodkor fikrlari, hissiyoti va xulosalariga sherik bo'lish, ayni paytda uning ijodiy yutuqlaridan ruhlanish, kamchiliklariga tanqidiy munosabat bildirishdan iborat bo'lib, mutolaa madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois adabiy tahlilni uyushtirish o'qituvchidan faoliyatini maqsadli rejalashtirishni, ijodkorlik va pedagogik mahoratni, ta'limdagi eng so'nggi islohotlardan xabardorlikni hamda shu asosda o'z ustida ishlashni talab etadi. Zero, adabiy tahlil ijodiy faoliyat sifatida badiiy-estetik tafakkur bilan bog'liqligi sababli ham sovuqqonlikni ko'tarmaydi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy ijodini o'rganishda ham kognitiv, ham kreativ jarayon bilan yaqin aloqadorligiga ko'ra obrazli tahlil yaxshi samara beradi. Zero, jahon falsafasi va tilshunoslik sohasida keng ommalashgan obrazli tahlilni adabiyot o'qitishga, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganishga tatbiq etish orqali o'quvchilar bilish jarayonlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish nazarda tutiladi. Obrazli tahlildan foydalanish his-tuyg'ularni boyitib, aqlni peshlashga, matn tagzaminidagi ma'noni, jozibani his qilishga hamda obrazli tafakkurni va mantiqan fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Matn ustida ishlashning bu turi o'zlashtirilgan parchalar asosida mo'yqalam va rang-tasvir imkoniyatlaridan foydalanib grafik

tasvirlash faoliyatidir. Bu borada professor R.Niyozmetova o'rinli ta'kidlaganidek, "ta'lim metodlari to'g'ri tanlanganda, o'quvchi badiiy asar mazmuni, unda ilgari surilgan g'oya, obrazlar silasilasi bilan tanishar ekan, hayot haqiqatini muallif qanday ko'rgan bo'lsa, shunday haqqoniy tasavvur etishga, mohiyatini anglashga muayyasar bo'ladi [5: 21].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Asar matni ustidagi tahliliy ishlar chog'ida o'quvchi xayolan o'zi qayta inkishof etgan badiiy obraz subyektiv obraz tasavvurga aylanib, idrok jarayonini mukammalashuviga yordam beradi. Bundan asarni o'rganish jarayonida o'quvchining rasm chizish faoliyati dastlab badiiy obrazni yaxlit holda idrok etishga va analitik-sintetik faoliyat yakunida obrazning umumlashgan ma'nosini qabul qilishga xizmat qilishi ma'lum bo'ladi. Asar qaramonlari, voqea-hodisalar yoki detallarni belgi, shakl yoki muayyan chizgilarda ifodalash vazifasi o'quvchilarning mazkur tasvirlardan ta'sirlanishga, faktlarni, qahramonlarning xatti-harakatlarini tushunish va baholashga o'rgatadi.

### **Tahlillar va natijalar**

Mohiyatida ta'limiy mahsulot yaratish maqsadi mujassam bo'lgan mazkur yondashuv, asosan, obyektning tushunish va tasavvur qilishga yo'naltirish maqsadi ustuvor bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar faoliyatini to'g'ri yo'naltirishiga, qulay pedagogik-psixologik muhit yarata olishida o'z samarasini beradi. Ta'kidlash o'rinliki, obrazli ko'ra olish o'quvchining hissiy-obrazli va fikriy tasavvuri orqali o'rganilayotgan shaxs, narsa-predmet yoki voqelikning mohiyatiga chuqurroq kirish, uni butunligicha his qilish, bilishga intilish maqsadi ustuvorlik qiladi. Natijada shunday holat yuzaga keladiki, ayni o'sha vaziyatda obyektning tushunish va anglash jarayoni o'zaro uyg'unlashadi. Buning samarasi o'laroq o'quvchi tasavvurida muayyan obyektning tashqi va ichki portreti jonlanadi, emotsional-bo'yoqdor hayotiy manzaralar tasviri paydo bo'ladi. Shuningdek, turli fanlar o'rtasidagi bilimlarning qiyoslanishi, umumlashtirilishi hamda voqelikning tub mohiyati chuqurroq idrok qilinishiga sharoit yaratiladi.

Obrazli tahlilda, asosan, so'z, belgi, figura, real obyektga qarab ularda aks etgan obrazni chizish va uning ramzi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash masalasi ko'zda tutiladi. Mazkur yondashuv belgi, rang yoki shakllar zamiridagi ma'nolarni izohlash; ramzlarning xususiyatlarini belgilash; obyektning aynan nega shunday obrazlar bilan qiyoslanishi sabablarini ochib berish maqsadiga qaratiladi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablari barcha sinf "Adabiyot" o'quv dasturlarida Alisher Navoiy ijodi o'rganilishi rejalashtirilgan. Lekin ayni paytda dars soatlarining cheklanganligi, dasturlarning siqiligi har doim ham asarni to'lig'icha o'rganish imkonini beravermaydi. Shu sababli shoir asarlarining to'liq mutolaasiga qiziqtirishda dasturda ko'zda tutilmagan bob, bo'lim yoki boshqa asarlariga murojaat qilish ham o'rinli bo'lib, bu muallif ijodi bilan yaqindan tanishishga, ularda ilgari surilgan konsepsiya, dolzarb g'oyaviy-badiiy mavzular ahamiyatini chuqurroq ochib berilishga yordam beradi va maxsus yondashuvlarni taqozo etadi. Pirovardida, Navoiyning tengsiz aql-zakosi, iste'dodi va taxayyul olami xususida o'quvchilarda muayyan qarashlar shakllanib boradi.

Alisher Navoiy ijodidan namunalarini o'qitish masalasi umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida shoir hikmatlari; o'rta sinflarda hikoyatlar, lirik asarlari; yuqori sinflarda esa "Xamsa" dostonlari doirasida rejalashtirilgan. Shoir ijodini o'rganishda asarlaridagi falsafiy va axloqiy-ma'rifiy muammolar qatori mavzu ko'lamining kengligi, talqinlarning turfaligi va tasvir imkoniyatlarining mukammalligiga o'quvchilar e'tiboriga qaratilishi o'rinli bo'ladi. "Xamsa"



dostonini o'qitish masalasi o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, muallif mahorati, tarixiy shaxslar talqini yoki zamonaviylik muammosining aks etishiga ko'ra mavzu tanlanishi o'quvchilarning shoir ijodiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortishiga, shuningdek, ajdodlarimiz dahosining naqadar keng va teranligiga ishonch tuyg'ularini uyg'otadi.

Yaxshi ayonki, "Xamsa" dostonida bugungi kun o'quvchisini befarq qoldirmaydigan, ularni yaratuvchanlikka va ijodiy fikrlashga undaydigan ilmiy-hayotiy kashfiyotlar badiiy yo'sinda talqin etilgan. Jumladan, yashindan ham tez harakatlanadigan "Sari us-sayr" ulovi, Iskandar olimlari kashf qilgan sirli qurollar, Xitoy hoqoni Iskandarga tuhfa etgan "Oinai Chin" ko'zgusi yoki Mallu qo'shinlari yaratgan sirli qurollar shular jumlasidandir. O'quvchilarga asardan aynan shunday mazmundagi tasvirlarini topish, ularni chuqur o'rganib so'ngra grafik ko'rinishlarda ifodalash vazifasini berish asosida mavjud namunalariga qaysidir jihati bilan o'xshab ketadigan obraz, matn yoki vaziyatning ifodasi, shakl-shamoyili va mazmun-mohiyati idrok qilinadi. Demak, asar mohiyatidagi joziba va mantiqni obrazli ko'ra olish orqali inson ruhiyatining yangi qirralarini ochish, bir so'z bilan aytganda, har kim o'zi uchun yangilik deb bilgan jihatlarni kashf qilishga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, "badiiy asarni hayot bilan, jamiyat oldida turgan vazifalar bilan qiyoslash, asarning tarixiy ahamiyatini aniqlash kerak" [2: 3] ligiga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, o'quvchining "kashfiyoti" uning olamni ko'rish va his etishiga ta'sir qiluvchi shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanishni va shu orqali kitobxonlik madaniyati, hayotni obrazli idrok etish qobiliyati va badiiy asarga beradigan bahosini shakllantirishga erishiladi.

Yuqori sinflar uchun obrazli tahlilga xos topshiriqlarni shakllantirishda o'quvchilarga dostonlardagi ilmiy-fantastik timsollarni aniqlash, ularni o'rganish orqali ma'nosini grafik tasvirlar orqali izohlash taklif etiladi. Masalan:

1. "Farhod va Shirin" dostonidagi me'mor Boniy, naqqosh Moniy, tosh yo'nuvchi Qoran kabi ustalar ishlatgan asbob-anjomlarning zamonaviy ko'rinishlari. Xususan, Qoranning toshlarni xuddi mumday eritayotgan toshkesuvchi teshasi bugungi kunda qaysi moslamalarning Navoiy orzusidagi ko'rinishi ekanligini tavsiflash, izohlash va grafik tasvirlash vazifasi beriladi. Buning uchun asar bilan yaqindan tanishish, matn ustida ishlash jarayonida tahlilga tortilayotgan detallarning ko'rinishi va xususiyatlarini aniqlash, afzalliklariga ishoralardan kelib chiqib ularning shaklini chizish mumkin bo'ladi. Qoranning Farhod bilan sihatidan o'quvchilarda tosh yo'nuvchi asbobning shakli va ahamiyati haqida muayyan tasavvurlar paydo bo'ladi.

2. "Sab'ay sayyor" dostonidan o'rin olgan "Ikkinchi iqlim yo'lidan keltirilgan musofir hikoyati" sujetidagi zargar Zayd Zahhob yasagan taxtning bugungi kundagi analogi xususida izlanishlarini yo'lga qo'yish. O'quvchilar shu asosda Navoiyning umummanfaati yo'lidagi ezgu g'oyalarini tadqiq etishga yo'naltirilib, bu moslamani qanday tasavvur etganligini chizigilarda ifodalash topshirig'ini berish mumkin. Masalan, "Bu g'aroyib taxt sakkiz poyali bo'lib, to'rttasi yuqoriroqda, yana to'rttasi pastroqda edi... Dur-u la'llar bilan bezatilgan bu taxtning zinasi ham sakkiz poyali bo'lib, shunday ishlangan ediki, shoh taxtga chiqmoqchi bo'lganida, u poyalar pasayib ustma-ust taxlanar, qadam bosilgach, u poyalar ko'tarilib, shoh taxt ustiga chiqar, ... shoh qaysi tomonga yurmoqchi bo'lsa, taxt salgina ishora bilan yura boshlardi..." [1: 266-267].

Dostondagi "To'rtinchi iqlim yo'lidan kelgan musofirning rivoyati" qahramoni "Jo'naning yerda tez yuruvchi bir ulovi bo'lib, uni "Sari us-sayr" deb atashardi. Bir haftalik yo'lni bir kunda bosib o'tishga qodir bo'lgan bu ulovga tez yurishda chaqmoq ham bas kelolmas,

osmondagi qushlar ham unga yetolmasdi” [1: 284]. Bu lavhalar bilan tanishgan o’quvchi tasavvurida, albatta, ulovga xos xususiyatlardan bugungi kundagi tezyurar poyezdlar yoki samolyotlarning timsoli paydo bo’ladi. Ularni muayyan shakl yoki belgilarda tasvirlash orqali o’quvchilarda obyektning obrazli qiyofasi yaratiladi.

3. “Saddi Iskandariy” dostonidagi fantastik manzaralarni idrok etish jarayonini aniqlashga yo’naltirilgan kognitiv strategiyalar. Asardagi real hayot va xayolot uyg’unligiga asoslanilgan timsollar talqiniga oid mazkur yondashuv orqali o’quvchilar muallifning Chin hoqoni Iskandarga hadya qilgan ko’zgu, yulduzlar ilmini tekshiruvchi suturlob, dengizosti sayohatidagi shisha sandiq, butun Yer yuzidagi voqealardan ogoh etuvchi oinayi jahon, masofa ko’rsatuvchi belgilar tasvirlari orqali har qanday kashfiyot inson aql-idrokining mahsuli ekanligi haqidagi g’oyani ilgari surishini anglab yetishlari muhim sanaladi.

Hoqon tuhfa qilgan ko’zguning ikkala yuzi ham kundek ravshan bo’lib, donishmandlar uning bir tomonini shoh oldiga ikki kishi da’vogar bo’lib kelganida qo’llardi. Bunda jom guvoh o’rniga o’tardi. Kishi so’zi rost bo’lsa yuzi ko’rinib turar, yolg’onchining yuzi ko’rinmay qolardi. Ko’zguning yana bir tomonidan ziyofatlar paytida foydalanilgan. Mast bo’la boshlagan odamning yuzi qiyshaya boshlasa, bu holatni ko’rgan odam ichishni darrov to’xtatardi. Ko’zguning ba’zi elementlari bugungi kunda ba’zi mahsulotlarning iste’mol qilingan yoki qilinmaganligini tekshirish moslamasiga o’xshab ketishini ta’kidlash mumkin.

O’quvchilar e’tiboriga Iskandarning sandiqsimon shisha idish ichiga kirishi lavhalarini orqali tahlili dengiz safaridagi ajoyibotlar mazmuni bilan tanishishlariga imkon yaratiladi. Hukmdorning shisha idish ichida bir necha oy qolib, dengiz osti manzaralarini: ming xil baliqlarning ko’rinishlari va yashash sharoitlarini tomosha qilgani lavhalarini tasavvurlarini oydinlashtirishga, ijodiy tafakkurini kengaytirishga hamda Iskandar sarguzashtlari asosida manzara janrida ijod qilishlariga ham motivatsiya beradi.

Rus metodisti M.G.Kachurinning fikricha, “...har bir asar “o’zini o’qishga o’zi o’rgatadi. O’qituvchining vazifasi – asar o’zining tur va xil tabiatini bildiradigan nomi, uslubining o’ziga xosligi bilan kitobxonga yuboradigan “signallar”ni ushlab qolish. Yozuvchi hozirjavn kitobxonga mo’ljallabgina qolmay, balki uni tarbiyalaydi, nimaga sinchiklab qarash, nima ustida o’ylash, nimaga taqqoslash, qaysi taassurotlarga qaytish kerakligini aytib turgan holda bildirmay va xolis yetaklab boradi. Faqat yozuvchining ovozi eshitish kerak”ligiga o’quvchilarning diqqatini qaratishi zarur” [3: 40]. Ko’rinadiki, badiiy matn mohiyatini rasmlar orqali ifodalash nafaqat obrazli tasavvur va tafakkurni, balki o’quvchi o’zi kashf qilgan yangiligi mazmuni bilan tanishtirish va ifodalash jarayonida og’zaki nutqini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’kidlash mumkinki, bunday yondashuvlar ta’lim oluvchilarning o’rganilayotgan muayyan obyektning turli shakl, belgilar orqali fikran tasavvur qilish, obyekt timsolini xayolan yaratish, voqea-hodisalar, narsa-predmetlar o’rtasidagi sabab-oqibatlar mohiyatini idrok qilish ko’nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Xulosalar**

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, Alisher Navoiy asarlarini obrazli tahlil imkoniyatlari doirasida o’qitish badiiy asarni matnning umumiy ruhiga kirib, tushunib idrok qilishga o’rgatishni, asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, o’ziga xos ichki tuzilishi, tabiatini ham hisobga olishni taqozo etadi. Bir so’z bilan aytganda, faoliyatini yuqoridagi kabi metodlar asosida algoritimlash qat’iyatli, tashabbuskor, kreativ va strategik fikrlaydigan bilimli yoshlarni tarbiylashga zamin yaratadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojjahmedov. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 428 b.
2. Каримов Х. Хозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70–80-йиллар). Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 1994. – 55 б.
3. Качурин, М.Г. Организация исследовательской деятельности учащихся (на уроках литературы). – М.: Просвещение, 1988. – 175 с.
4. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-olij-mazhlisiga-murozhaatnomasi>
5. Ниёзметова Н.Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Т.: Fan, 2007. – 216 б.

### DUAL TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISH YO'LLARI

Yusupova Adolat Primqulovna

Pedagogika innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruvi hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti  
tayanch doktorant,  
[adolatprimqulovna0190@gmail.com](mailto:adolatprimqulovna0190@gmail.com)

*Annotatsiya:* Maqolada hozirgi kunda dual dual ta'lim tizimida psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish turli uslub va strategiyalarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni dual ta'limni amalga oshirish, shuningdek, o'quvchilarning nazariy va amaliyotdagi yutuqlarini aniq o'lchay oladigan adekvat baholash usullarini, o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuviga imkon beradi.

*Kalit so'zlar:* professional ta'lim tizimi, mehnat bozori ehtiyojlari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, integrasiya, o'qitish natijalari, motivatsiya, psixologik-pedagogik.

### ПУТИ РЕШЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В СИСТЕМЕ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Юсупова Адолат Примкуловна

Институт педагогических инноваций, профессионального образования и переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров докторант,  
[adolatprimqulovna0190@gmail.com](mailto:adolatprimqulovna0190@gmail.com)

*Аннотация:* В статье рассматривается комплексный подход к решению психолого-педагогических задач в системе образования, включающий в себя различные методики и стратегии реализации дуального образования, а также адекватные методы оценки, позволяющие точно измерить теоретические и практические достижения учащихся, социально-психологическую адаптацию учащихся.

*Ключевые слова:* система профессионального образования, потребности рынка труда, практико-ориентированное образование, компетенция, профессиональная компетентность, интеграция, результаты обучения, мотивация, психолого-педагогическое.



MUNDARIJA

TANIQLI FAN VA DAVLAT ARBOBI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR  
AKADEMIYASI POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI DIREKTORI, 3  
AKADEMIK SAYYORA RASHIDOVA 80 YOSHDA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ  
PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

- 1  $(s_{nn})^{1/2} = 2.76$  va  $5.02$  TeV energiyalarda Pb+Pb to'qnashuvlarining kollektiv xossalarini taqqoslash  
Shodmonov M.Z., Musayev Q.A., Kanokova Sh.Z., Olimov X.K., ..... 5
- 2 Термоэлектрические свойства тонких пленок  
Довранов К.Т. .... 11
- 3 Kvant o'rali geterostrukturalarda kombinatsiyalangan holatlar zichligiga magnit maydon va haroratning ta'siri  
Erkaboev U.I., Sayidov N.A., Raximov R.G', Negmatov U.M., Mirzaev J.I., ..... 16
- 4 Matritsaviy original va matritsaviy tasvir funksiyalarning asosiy xossalari  
Rajabov Sh.Sh. .... 22
- 5 Вырачивание соединения Si-CdTe в вакууме с использованием технологии термического испарения  
Сапаев И.Б., Саъдуллаев С.О., Курбанова М.Р. .... 30
- 6 Полидоирада  $M$ -гармоник функциялар  
Мадрахимов Р.М., Омонов О.И., ..... 35
- 7 Chiziqli bo'lmagan differensial tenglamalar sistemasini asimptotik integrallash  
Alishev A., Alishev Sh.A., ..... 40

KIMYO FANLARI

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ  
CHEMICAL SCIENCES

- 1 Umid neft koni qatlam suvlaridan yod komponentini ajratib olishning elektrokimyoviy usuli  
Begmanov S.N., Vapoev H.M., Muhiddinov B.F., Barnoyev A.A., ..... 46
- 2 Ferrosenilatseton asosida ligandlar sintezi va optik xossalari  
Sulaymonova Z.A., Umarov B.B., Navruzova M.B., ..... 52
- 3 Uchqizil yer osti sho'r suvlari tarkibidagi yodni geksametilentetramin asosida ajratib olish va tarkibini fizik kimyoviy tahlil qilish  
Uralov N.B., Turayev X.X., Normurodov B.A., Karimov M.U., ..... 57
- 4 Конденсация амидов с альдегидами и получение ингибиторов аномальных явлений при добычи нефти и газа  
Эшмуратова Р.Р., Икромов А.И., Каримов М.А., ..... 62
- 5 Log'on bentoniti va sanoat chiqindilari asosida faollab olingan adsorbentlarning gidrofillik xususiyatlarini aniqlash  
G'aniyeva N.M., Ochilov G'.M., Boymatov I.M., ..... 69





6	<b>Faollashtirilgan uglerod ishlab chiqarish uchun xom ashyo resurslari taxlili</b> Karabayeva M.I.,Salixanova D.S.,Ubaydullayeva N.N.,.....	73
---	---	----

03.00.00

**BIOLOGIYA FANLARI**  
**БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**BIOLOGICAL SCIENCES**

1	<b>O'zbekiston o'rgimchaklar faunasining o'rganilish holati</b> Shodmonov F.A.....	78
2	<b>O'zbekistonda pimeliinae latreille,1802 (coleoptera, tenebrionidae) kenja oilasining tur tarkibi</b> Umirzoqova M.S.,Xalimov F.....	83
3	<b>Turkiston tizmasining shimoliy yon bag'irliklar florasining xayotiy shakllari bo'yicha qiyosiy tahlili</b> Azimova D.E.,Sharipova M.X .....	92
4	<b>Биоморфологические особенности декоративной эводии (tetradium daniellii (benn.) T.g.hart.) В условиях интродукцииintroduksiya sharoitida evodiya (tetradium daniellii (benn.) T.g.hart.) Manzarali o'simligining biomorfologik hususiyatlari</b> Mamadjanova M.A.....	96
5	<b>O'zbekiston florasida pistacia vera l. O'simligining tarqalishi</b> Jabbarova D.X.,Yusupov Z.O.....	100
6	<b>Biologik faol moddalar (auksinlar) ning xossalari, ahamiyati va biologik faolligi</b> To'ychiyev E.J.,Jurayev T.A.,Ismoiljonova O.B.....	105
7	<b>Dorivor o'simliklar va ularning biologik xususiyatlari</b> Usmonov S.O.....	110
8	<b>Noa'naviy ozuqa manbalari va ulardan iqtisodiyot tarmoqlarida foydalanish istiqbollari (ilmiy tahlal)</b> Akbarova G.,Ikromov T.,Qo'zimurodov O',Mirzayeva D.,Abdinazarov H.H.,Abdikholikova F.A.,Kuchkarova D.X.,Xo'jamshukurov N.A.....	114
9	<b>Tuproq tsianoprokariotlari (nostok) ning ayrim fiziologik xususiyatlari</b> Sheraliyev A.,Tojiboyev Sh.....	127

09.00.00

**FALSAFA FANLARI**  
**ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ**  
**PHILOSOPHICAL SCIENCES**

1	<b>Sport va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari</b> Azimov Sh.....	131
2	<b>Axborotlashgan jamiyatda inson faoliyati intellektuallashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili</b> Mirzaxolov N.T.....	138
3	<b>Axborotlashgan jamiyatda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash tizimida g'oyaviy ta'lim-tarbiyaning ahamiyati</b> Suvanov I.A.....	142



4	<b>Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalarini o’qitishdagi muammolar va yechimlar</b> Baymuratova I.V.....	148
5	<b>Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona va yangi axborot texnologiyalarining o’rni</b> Abdulazizov A.H.....	152
6	<b>Uzbekistanda rahbar ayollar imijini oshirishning ob’yektiv va sub’yektiv shart-sharoitlari</b> G’afurova M.A.,G’affarova G.G.....	159
7	<b>Ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlari</b> Hayitov J.....	165
8	<b>ПАТРИОТИЗМ И ВЕРНОСТЬ ВОИНСКОМУ ДОЛГУ – КАК ОСНОВНОЕ КАЧЕСТВО ВОЕННОСЛУЖАЩЕГО</b> Абдулхаев А.А.....	171
9	<b>Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi va birligining ijtimoiy-falsafiy jihatlari</b> Haydaraliev Sh.....	175
10	<b>Global inqiroz sharoitida ekologik xavfsizlikni ta’minlashning o’ziga xos xususiyatlari</b> Alikulov X.A.....	179
11	<b>Нравственный идеал и патриотическое воспитание студентов в современном обществе</b> Хатамова Р.З.....	185
12	<b>Jamiyatda g’oyaviy birdamlikni ta’minlash zaruriyati</b> Sayidov M.X.....	189
13	<b>Ekologik dunyoqarashni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy manfaatlar birligi</b> Quyliyev T.....	194
14	<b>Понятие и особенности “Глубоких фейков”</b> Ибрахимов Б. Б.....	201
15	<b>Jamiyatni demokratlashuv jarayonlarida ijtimoiy innovatsiyalarning roli</b> G’apparov E.O.....	206
16	<b>Barkamol inson vatanparvarlikning bosh substansional komponenti-sub’yekti sifatida</b> Kalkonov E.T.....	212
17	<b>Globallashuv jarayonida shaxs erkinligi tamoyillari</b> Qandov B.M.....	219

10.00.00

**FILOLOGIYA FANLARI**  
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PHILOLOGICAL SCIENCES**

1	<b>O’zbek tilida sinonimiya munosabatini vujudga keltiruvchi omillar</b> Xakimova M.K.....	227
2	<b>Zamonaviy o'zbek tilini tillararo integratsiyasi</b> Yuldashev M.M.....	236



3	<b>Семантическая структура английских и каракалпакских фразеологизмов с компонентом зоонимом с отрицательной коннотацией</b> Сагатова З.Б.....	240
4	<b>Tilshunoslikda so'zlarning semantik maydonlar asosida o'rganilishi</b> Umirzoqova F.I.....	246
5	<b>Für predlogining leksik-semantik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi talqini</b> Mustanova Sh.A., Tagayeva S.U.....	250
6	<b>„Dekameron“dagi sabr timsoli Grizelda</b> Saydaliyeva G.S.....	254
7	<b>Jahon tilshunosligida yuridik terminologiyaning o'rganilganlik darajasi</b> Abduraxmanova Z.Y.....	259
8	<b>‘Umar Al-Chag’ miniyning “Al-Mulakhas Fi Al-Haya’ a Al-Basita” asari: mulahhasning o'rganilishi</b> Xolbayeva R.A.....	264
9	<b>Developing students listening abilities and improve their knowledge</b> Azimjonova M.T.....	269
10	<b>Ispan tilining milliy-madaniy xususiyatlari</b> Baxramova D.G'.....	273
11	<b>Son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari</b> Maxamadaliyeva Z.B.....	277
12	<b>Изучение колоративной лексики на уроках русского языка</b> Максудова Ф.Ш.....	282
13	<b>Hozirgi o'zbek dramaturgiyasida kinodramaturgiyaning o'rni</b> Islomomov J.S.....	288
14	<b>Methods of developing communicative competence in english for students of tourism</b> Yuldasheva D.K.....	293
15	<b>Eron tilshunoslarining qo'shma fe'llar borasidagi qarashlari</b> Turdaliyev O.F.....	298
16	<b>Azimxoja Eshon hikmatlarining ma'rifiy va badiiy jihatlari haqida</b> Azizxonova S.....	303
17	<b>Badiiy asarda qo'llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragmatik tahlili</b> Yuldosheva M.Z.....	309
18	<b>Tilshunoslikda nominasiya jarayoni</b> Abduqaxarov Q.A.....	314
19	<b>Biznes maqsadli koreys tili ta'limining bugungi holati</b> Temirbulatova I.....	318
20	<b>American capitalism reflected in Theodore Dreiser's novel “An American tragegy”</b> Shomuxammadov X.....	322
21	<b>Terminlar tizimlararo ko'chishning sotsial omillari</b> Hashimova X.J.....	326
22	<b>Sug'urta terminlarining shakllanishida semantik munosabatlar</b> Xaydarov I.T.....	333



23	<b>Terminologiyada omonimiya hodisasi tahlili</b> Xudoyberdiyeva G.A.....	339
24	<b>Ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli maqollarning konseptlarda ifodalanishi</b> Uralova O.P.....	343
25	<b>Qadimgi turkiy asarlarni hozirgi zamon tillariga tarjima qilishning ayrim nazariy masalalari</b> Sadiqov Z.Y.....	347
26	<b>Frazeologik birliklarni tarjima qilish usullari (ispan va rus tili materiallari asosida)</b> Jalilova S.M.....	352
27	<b>Судебная лингвистика: цели и задачи</b> Камалходжаева С.С.....	356
28	<b>Лингвистика как прикладная наука и направления прикладной лингвистики</b> Мусаева Е.К., Тулкинов Э.....	360
29	<b>Образ yaratishda xarakter tasvirining o'rni</b> Akramov Sh.X.....	364
30	<b>Формирование структурно-тематических групп графического романа как жанра в современной русской прозе</b> Ротанов А.Н.....	369
31	<b>The role of english in the economic sphere</b> Xamrayeva Sh.Sh.....	373
32	<b>"Gulshanul -Asror" qo'lyozma nusxalarining qiyosiy tadqiqi</b> Jo'raev J.A.....	377

13.00.00

**PEDAGOGIKA FANLARI**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PEDAGOGICAL SCIENCES**

1	<b>Elementar va umumiy fizikani o'qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish</b> Soyibnazarov A., Soyibnazarov A.I.....	383
2	<b>'To'y marosimlari folklori matnlari inglizcha tarjimalarini qiyosiy o'rganishda milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo'lishi</b> Namozova K.B.....	390
3	<b>Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga ilmiy yondashuvlarning pedagogik asoslari</b> Maxmudova M.S.....	396
4	<b>Проблемы эффективного использования возобновляемых источников энергии в экотуризме</b> Камолов Б.Х.....	400
5	<b>Особенности развития навыков общения в начальных классах школ с многонациональным составом в аспекте формирования универсальных учебных действий</b> Улдухужаев Н.З.....	404





6	<b>Clil texnologiyalari vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion metod va vositalar</b> Mirzakarimova M.M.....	410
7	<b>Koxlear implantli bolalarni eshitish idroki va nutqini shakllantirish orqali inklyuziv jamiyatga integratsiya qilish</b> Raximova X.S., Akbarov S.S.....	415
8	<b>Yarim o'tkazgichli va mikroelektron relelarni o'qitishda zamonaviy –innovasion yondoshuvlardan foydalanib yangi interfaol metodlar yaratish</b> Abdullayeva M.A.....	422
9	<b>Texnika yo'nalishida o'tiladigan mutaxassislik fanlarini samarali o'qitishda kompyuter dasturlaridan foydalanish</b> Nazirjonova Sh.S.....	427
10	<b>Inklyuziv ta'lim samaradorligin oshirishda oilalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish</b> Maxmudov X.Sh.....	432
11	<b>Yosh voleybolchilarning sakrovchanlik qobiliyatini maxsus mashqlar orqali rivojlantirish samaradorligi</b> Rahmanov E.T., Abdusalomov I.K.....	436
12	<b>Некоторые вопросы дифференцированного обучения на уроке немецкого языка</b> Мансурова Г.М.....	441
13	<b>Gumanitar ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni</b> Burnashev R.F.....	445
14	<b>Ta'lim sifatini oshirishda blended learning va flipped classroom texnologiyalarning o'rni</b> Fayziyeva M.R.....	450
15	<b>O'qitish tizimiga maydonli tranzistorlar asosidagi dinamik kuchlanish kuchaytirgichini joriy etish</b> Karimov Sh.S., Korabayev E.....	457
16	<b>Новые тенденции в организации системы управления деятельности кафедры в контексте внедрения интеллектуальных систем управления</b> Абдуллаева О.С.....	461
17	<b>Pedagogik jamoani boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va uning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi roli</b> Kurbanov M.U.....	468
18	<b>Dars o'tishda muammoli vaziyatlarni hosil qilishni ba'zi usullari</b> Rahmonqulov R.R., Toshtemirov K.Q., Toshtemirova G.A.....	473
19	<b>Критерии формирования инновационного потенциала у студентов технических направлений</b> Абдуазизова В.В., Мухторалиева М.А.....	480
20	<b>Социально-психологические критерии обеспечения социальной стабильности в семье</b> Бурханова М.Б.....	484



21	<b>O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida o'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish mazmuni</b> Xakimova D.M.....	492
22	<b>Talabalarni kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mohiyati</b> Kamalova G.A.....	497
23	<b>O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish istiqbollari</b> Adizova H.R.....	503
24	<b>Types of classroom interaction used in esl classes</b> Alieva D.M.....	508
25	<b>Implementing vocabulary in context to elementary learners</b> Allaberdieva G.B.....	512
26	<b>Muloqotga o'rgatishda o'yinlardan foydalanishning pedagogik-metodik asoslari</b> Buriyeva S.S.....	518
27	<b>Xorazm kulolchilik maktablarining o'ziga xos jihatlari</b> Buvayev B.....	524
28	<b>The vocational psychology: impact of career interventions</b> Ergasheva G.B.....	529
29	<b>Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huqubuzarliklarning o'ziga xos xususiyatlari</b> G'ozibekov T.H.....	535
30	<b>The importance of assessment in pedagogical processes in online teaching</b> Normuminova X.A.....	541
31	<b>Informatikani o'qitishning metodikasi va muammolari</b> Islamova F.S.....	545
32	<b>Изучение опыта преподавателей по применению опорной технологии в совершенствовании лингвистической компитентности по русскому языку у студентов неязыковых вузов узбекистана</b> Жалалова С.М.....	551
33	<b>Proficiency in cognitive academic language is essential for the learner participation and engagement that is necessary for subsequent success</b> Ho'janazarova G.G'.....	559
34	<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari</b> Kurbanova N.N.....	564
35	<b>Timss xalqaro tadqiqotining o'quvchi –yoshlar bilimni baxolashdagi imkoniyatlari</b> Madraximova M.T.....	569
36	<b>Influence of tourism in learning languages while travelling</b> Mamatova A.I.....	573
37	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishining muxum xususiyatlari</b> Rahmonov M.U.....	580
38	<b>Modern approaches to teaching foreign languages</b> Idrisaliev L.S.,Nematullaev A.....	585



39	<b>Chet tili fanini kasbga yo'naltirib o'qitishni tashkillashtirishning metodik adabiyotlarda yoritilishi</b> Bekmuratova N.....	590
40	<b>Kimyodan kompyuter animatsiyalariga asoslangan didaktik materiallar yaratish metodikasi</b> Xojiyeva S.S.....	594
41	<b>Development of pedagogical competence of teachers of technical universities in the process of learning and teaching english for <i>special purposes</i></b> Niyozova Y.....	600
42	<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni boshlang'ich ta'limga tayyorlashning pedagogik tahlili</b> Nuriddinova A.B.....	605
43	<b>Olimpiya sportining rivojlanish tarixi va zamonaviy holati</b> Kuchkarov U.L.....	611
44	<b>Siyosiy evfemizmlarning tarkibiy shakllari: o'zbek va ingliz tillaridagi tahlili</b> Omongul Maxamadsoli qizi.....	614
45	<b>Bo'lajak biologiya o'qituvchilarning sog'lom turmush tarzi kompetentligini takomillashtirishning</b> Otajonova S.....	623
46	<b>Oliy o'quv yurtlarining tasviriy san'at fani darslarida natyurmort ishlashning soddalashtirilgan usullari va bosqichlari</b> Sharipjonov M.Sh., Hasanboyeva O.H.....	627
47	<b>Texnika ta'lim yo'nalishlarida talabalarni masofadan o'qitishning nazariy va didaktik asoslari</b> Nasretdinova F.N.....	630
48	<b>Motivatsion subtipning murakkab jumalari: tuzilishi va ishlash xususiyatlari</b> Popova Y.I.....	637
49	<b>Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari</b> Arabboyev Q.T.....	643
50	<b>Структурно-функциональная характеристика развития экологической ответственности личности обучающегося</b> Очилдиева Х.Г.....	648
51	<b>Стимулирование интереса учащихся к урокам литературы</b> Половина Л.В.....	652
52	<b>Talabalarning mustaqil ta'lim olishida axborot texnologiyalari samaradorligi</b> Qanoatova N.....	658
53	<b>Ingliz tili darslarida chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar yuqori sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini kommunikativ yondoshuv asosida rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari</b> Qodirov A.M.....	663
54	<b>Bo'lajak muhandis-elektriklarda intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish komponentlari va bosqichlari</b> Qurbanov A.....	669



55	<b>Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikaning "mexanika" bo'limiga doir turli tipdagi nostandart masalalarni yechishda o'quvchi qobiliyati xususiyatlari</b> Raimov G'.F.....	675
56	<b>Axborot texnologiyalari darslarida talabalarni samaradorlik darajasini shakllantirishda ta'limiy resurslar foydalanish usullari</b> Rasulov I.M.....	681
57	<b>Xorijiy tilda interfaol usullarda muloqotga o'rgatishning pedagogik-metodik asoslari</b> Suyarova Z.Sh.....	685
58	<b>Jondor tumani aholi manzilgohlari va ularni tashkil etishning nazariy asoslari</b> Toshov X.R.,Xolov Yo.D.....	691
59	<b>Роль биологии в школьном образовании</b> Халимова М,Р.....	694
60	<b>Анализ педагогических механизмов образовательного процесса в формировании деятельности обучения мировому английскому языку</b> Хасанова М.А.....	698
61	<b>Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari</b> Dushabaev D.Sh.,.....	702
62	<b>Sports tourism as a module of elective courses of physical education and sports sciences in higher education institutions.</b> Ziyayev A.A.....	707
63	<b>Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlik asosida axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirish</b> Siddiqov I.B.....	712
64	<b>Bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish asosida kasbiy fazilatlarini rivojlantirish</b> Raupova M.M.,Narzuqulova D.H.....	717
65	<b>Talabalarning loyihalash faoliyatida amaliy-ijodiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdagi dolzarb muammolari</b> Madaminov J.Z.....	724
66	<b>Pedagogik amaliyotni amalga oshirish jarayoni tizimli tashkil qilish.</b> Ikromov I.M.....	729
67	<b>Oliy ta'limda metapredmet yondashuv g'oyasi va uning mohiyati</b> Najmiddinova Y.R.....	736
68	<b>Formation of pupils' independent thinking as an important pedagogical problem</b> Xodjayev B.X.....	742
69	<b>Конфликт в педагогическом коллективе и пути преодоления его</b> Сатаров А.Х.....	749
70	<b>"Menejment tarixi" modulini o'qitishni tashkil etish va tushunchalarni shakllantirish metodikasi</b> Ustadjalilova X.A.....	753
71	<b>Bo'lajak menejerlarda akademik mobillikni amalga oshirish shart-sharoitlari</b> Nizamova M.N.....	759





72	<b>Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi taraqqiyoti jarayonida oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning pedagogik mexanizmlari</b> Nizamova Sh.I.....	763
73	<b>A2 darajadagi o'quvchilarga ingliz tili predloglarini o'qitishning ayrim jihatlari</b> Norqulov R.H.....	768
74	<b>Bir membranali organoidlar mavzusini o'qitishda mental xaritalardan foydalanish</b> Ahmadjanova M.S.....	773
75	<b>Bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz ma'naviy tarbiya jarayoniga tayyorlash omillari va shart-sharoitlari</b> Baratov B.Q.....	778
76	<b>O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning pedagogik usullari</b> Qosimov A.N.....	788
77	<b>Классификация детского фольклора</b> Азмиева Э. Э.....	795
78	<b>Критерии профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в условиях цифровизации образования</b> Козлова Л.С.....	801
79	<b>Применение фитнес-технологий на уроках физической культуры для учащихся в старших классах</b> Султанов Б.Б.....	807
80	<b>Methodological justification of the main directions of improving physical education of higher education students.</b> Xatamov Z.N.....	811
81	<b>Значение качества и эффективности в совершенствовании инженерной графики</b> Худайбердиев Б.Б.....	818
82	<b>Художественная узбекская литература как средство нравственного воспитания будущих учителей истории</b> Замилова Р.Р.....	822
83	<b>Nomutaxassislik ta'lim yo'nalishi talabalarining kimyoviy tafakkurini rivojlantirish metodikasi</b> Akbarova M.T.....	826
84	<b>Ta'lim texnologiyalaridan foydalanib badiiy asarlarni o'qitish mexanizmlari</b> Nazarova Q.X.....	831
85	<b>Bo'lajak ekologlarda eko-forsayt kompetentlikni rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyati</b> Shomurotov B.H.....	836
86	<b>Ergonomik yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi</b> Abdullayev S.X.....	842
87	<b>Obrazli tahlil – kreativ va strategik fikrlash omili sifatida</b> Kambarova S.I.....	846



88	<b>Dual ta'lim tizimida psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish yo'llari</b> Yusupova A.P.....	851
89	<b>Malakali mutaxassis sifatli ta'lim vositasi sifatida</b> Imanov B.B.....	855
90	<b>Oliy ta'limda talabalarda ekologik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning fanlararo integratsiyasi</b> Davlatova S.T.....	859
91	<b>Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning uslubiy shakllari</b> Agaliyeva X.N.....	864
92	<b>O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.</b> Haydarova M.I.....	869
93	<b>Milliy o'zlikni anglashda milliy urf odatlar va an'analarning bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyati.</b> Haydarova M.I., Yigitaliyeva Z.N.....	873
94	<b>Effectiveness of using activities for developing writing skills at uzbek schools.</b> Makhkamova K., Anorova F.A.....	879
95	<b>Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini o'zi qadrlashni rivojlantirishda o'qituvchining o'rni</b> Isaxanova M.E.....	886
96	<b>Ijtimoiy tartib taraqqiyot omili</b> Aminov Sh.N.....	891
97	<b>Futbolchilarni tayyorlashda taktik va jismoniy tayyorgarlik</b> Dadaboyev R.R ...	895